

O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari telefon orqali muloqot qildilar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-may kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari bir-birini, mamlakatlarimizning birodar xalqlari va faxriylarini Ikkinchil jahon urushidagi G'alaba kuni bilan samimi muborakbos etib, sihat-salomatlik, baxt-saodat va farovonlik, tinchlik va ravnaq tiladilar.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaqidagi ko'p qirrali hamkorlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. O'zaro savdo va investitsiyalar ko'rsatkichlari izchil oshib borayotgani, parlamentlar, hukumatlar va hududlar o'rtaqidagi aloqalar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika, energetika, infratuzilma va boshqa ustuvor yo'nalishlardagi qo'shma loyiha va dasturlarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentlar mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashib, bo'lajak oliy darajadagi ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar.

Manba